

**ALISHER NAVOIY "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASIDA
NAQSHBANDIY ZIKRI USLUBI****Muxiddinova Dilnura Jo'raqul qizi***Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti**Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili**yo'nalishi 4-kurs talabsi**dilnurajoraqulqizi@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Naqshbandiya tariqatining falsafiy-axloqiy asoslari hamda uning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida Hazrat Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Nazar dar qadam» kabi fundamental ruknlar hamda zikrning «vuquf» (zamoniy, adadiy, qalbiy) tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, Imom G'azzoliy va Alisher Navoiy qarashlari prizmasi orqali tariqatning shariat va sunnat bilan uyg'unligi, tasavvufiy zikrning qalb poklanishidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada Naqshbandiya ta'limoti nafaqat diniy-mistik tizim, balki shaxsni ijtimoiy faollik va qat'iy intizomga yo'naltiruvchi mukammal axloq maktabi ekanligi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Naqshbandiya, tasavvuf, xafiy zikr, xilvat dar anjuman, vuqufi qalbiy, Alisher Navoiy, ma'naviy kamolot, shariat, sunnat, robita.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье исследуются философско-этические основы тариката Накибандия и его роль в духовном совершенствовании человека. Проанализированы фундаментальные принципы, выдвинутые Бахоуддином Накибандом, такие как «Хилват дар анжуман», «Назар дар кадам», а также правила зикра «вукуф» (замани, адади, калби). Через призму взглядов Имама Газали и Алишера Навои освещается гармония тариката с шариатом и сунной, а также практическое значение суфийского зикра в очищении сердца. В статье научно обосновано, что учение Накибандия является не только религиозно-мистической системой, но и совершенной школой этики, направляющей личность к социальной активности и строгой дисциплине.*

Ключевые слова: *Накибандия, суфизм, тайный зикр, хилват дар анжуман, вукуфи калби, Алишер Навои, духовное совершенство, шариат, сунна, робита.*

Abstract: *This article examines the philosophical and ethical foundations of the Naqshbandiya Sufi order and its role in the spiritual perfection of the individual. Fundamental principles put forward by Bahauddin Naqshband, such as "Khilvat dar anjuman" (Solitude in a crowd), "Nazar dar qadam" (Watching one's steps), and the "wuquf" (temporal, numerical, and heart awareness) rules of dhikr, are analyzed. Through the perspective of Imam Ghazali and Alisher Navoi, the harmony of the order with Sharia and Sunnah is highlighted, as well as the practical significance of Sufi dhikr in the purification of the heart. The article provides a scientific basis for the argument that*

Naqshbandiya teaching is not only a religious-mystical system but also a complete school of ethics that guides the individual toward social activity and strict discipline.

Keywords: *Naqshbandiya, Sufism, silent dhikr, khilvat dar anjuman, vuqufi qalbi, Alisher Navoi, spiritual perfection, Sharia, Sunnah, rabita.*

Tasavvuf ta'limoti Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'z mulking sultoni, gumanist va faylasuf Alisher Navoiy yashab ijod etgan davrda Markaziy Osiyoda tasavvufning ma'naviy-axloqiy hamda umuminsoniy g'oyalarini o'zida mujassam etgan Naqshbandiya ta'limoti keng tarqalgan edi. Hazrat Navoiy o'z asarlarida tasavvuf falsafasiga xos axloq-odob qoidalari, insonparvarlik, nafsni tiyish, adolat va ma'rifat, tabiat va insonga muhabbat, ularni e'zozlash, shuningdek, ta'lim-tarbiya masalalarini chuqur aks ettiradi. Bu g'oyalar mutafakkirning g'azal va ruboiylari, dostonlari hamda nasriy asarlariga singib ketgan. I. Haqqul ta'kidlaganidek, Navoiyning tasavvufga yondashuvi shaxs va millat taqdiriga mas'uliyat bilan qarash, yurt taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan g'oyalarni ilgari surish hamda haqiqatni nafaqat anglash, balki uni sevish darajasiga yetishishni ko'zlagan yuksak ma'naviy-ma'rifiy maqsad bilan bog'liqdir. Ana shu tasavvufiy muhitning yirik namoyandalaridan biri, Naqshbandiya tariqatining asoschisi Hoja Bahouddin Naqshbanddir. U milodiy 1318 yil mart oyida Buxoro viloyatining Kogon tumani Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Hoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Xo'jayi Buzruk, Shohi Naqshband kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Uning asl ismi Muhammad bo'lib, manbalarda otasi va bobosi ham Muhammad ismida bo'lgani qayd etiladi. Nasabi ota tomondan Hazrat Ali (r.a.), ona tomondan esa Hazrat Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqaladi. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan shug'ullangani bois "Naqshband" laqabi bilan tanilgan. O'sha davrda matolarga naqsh ishlovchi hunarmandlar naqshband deb atalgan. "Bahouddin" so'zi esa "dinning nuri" ma'nosini anglatib, keyinchalik berilgan sharaflı unvondir.

Bahouddin Naqshband umr davomida bir necha pirlar tarbiyasini olgan. Uning birinchi piri Hoja Muhammad Boboyi Samosiy bo'lib, u yosh muridni o'z xalifalaridan biri Amir Sayyid Kulolga topshiradi. Amir Sayyid Kulol unga tariqat ilmlarini o'rgatib, keyinchalik ijozat beradi. Shundan so'ng Bahouddin ilm talabida yassaviya tariqatining mashhur vakillaridan biri Qusam shayx huzuriga, Nasaf (hozirgi Qarshi)ga boradi va u yerda ma'lum muddat ta'lim oladi. Qusam shayx ham uni yuksak ehtirom bilan qabul qilib, o'z shogirdi sifatida qadrlagan.

Hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham Hoja Bahouddin Naqshbandning ma'naviy kamoloti va ustozlari haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Unda ta'kidlanishicha, u zotning asl ismi Muhammad ibn

Muhammad Buxoriy bo'lib, ma'naviy jihatdan "farzandlikka qabul qilish" (ya'ni ruhiy tarbiya) Xoja Muhammad Boboyi Samosiy orqali amalga oshgan. Tariqat odobi va zohiriy ta'lim esa Amir Sayyid Kulol tomonidan berilgan. Biroq haqiqat nuqtayi nazaridan u zot Uvaysiy hisoblanib, ya'ni bevosita ruhiy tarbiyani Hazrat Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (q.s.) ruhidan olganlari qayd etiladi. "Nasoyim ul muhabbat"da keltirilishicha, Bahouddin Naqshband o'zlarining ruhiy kamolot yo'lidagi boshlang'ich holatlarini tasvirlab, bir kecha jazba ta'sirida Buxoro atrofidagi mozorlarni ziyorat qilganini bayon etadilar. Har bir mozorda yonib turgan chiroqlarni ko'radilar, ammo ularning piliklari harakatga keltirilmasa, nuri to'liq zohir bo'lmasligi anglashiladi. Bu holat ramziy ma'noda inson qalbidagi iste'dod va salohiyatni harakat va amal bilan uyg'otish zarurligini ifodalaydi. Shundan so'ng ularga ma'naviy yo'lda quyidagi muhim ko'rsatmalar beriladi: barcha ishlarni shariat buyruq va qaytariqlari asosida bajarish, qat'iyat bilan amal qilish, sunnatga to'liq rioya etish, bid'atlardan yiroq bo'lish hamda Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarini o'ziga peshvo qilib olish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Rasululloh (s.a.v.) va sahobalar (r.a.) hayoti va merosini chuqur o'rganish lozimligi uqtiriladi.

Naqshbandiya tariqati ahli sunnat e'tiqodiga amal qiluvchi, tasavvufdagi o'ziga xos yo'nalishlardan biri bo'lib, asosan xafiy zikrga tayanadi. Ushbu tariqat zohiran ko'zga tashlanadigan keskin xatti-harakatlardan yiroqligi, suhbat va robita (ruhiy bog'lanish)ga alohida e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Naqshbandiya an'analarida jamoaviy zikr shakli "Xatmi xojagon" deb ataladi. Mazkur zikr ma'lum tartib va qoidalar asosida bajarilib, unda odatda faqat tariqatga mansub shaxslar ishtirok etadi. Xafiy zikr, ya'ni yashirin zikr Naqshbandiya ta'limotining asosiy jihatlaridan biri bo'lib, "qalb zikri" sifatida talqin etiladi. Bu zikr ovoz chiqarmasdan, ortiqcha jismoniy harakatlarsiz, ichki ruhiy holat orqali amalga oshiriladi. Aynan shu jihat "Dil ba yoru, dast ba kor" (ko'ngil Allohda, qo'l ishda) tamoyilining mohiyatini ochib beradi. Ya'ni inson tashqi faoliyatda jamiyat bilan birga bo'lib, mehnat qiladi, ammo qalban doimo Alloh bilan bog'langan holda yashaydi. Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra, inson Alloh vasliga yetishish uchun jamiyatdan, oiladan yoki kasb-hunardan voz kechishi shart emas. Aksincha, Hazrat Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan "xilvat dar anjuman" tamoyili insonning tashqi va ichki hayoti o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Unga ko'ra, inson zohiran odamlar orasida bo'lib, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi, botinan esa Haq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Bu qarash tasavvufni faqat zohidlik doirasida cheklab qo'ymasdan, uni hayotiy-amaliy falsafaga aylantiradi.

Naqshbandiya tariqatining amaliy asoslari ma'lum ruhiy mashqlar va qoidalar – ruknlar orqali ifodalanadi. Jumladan, "Nazar dar qadam" tamoyili insonning har bir qadamini nazorat qilish, qilayotgan amallarining shariatga muvofiqligini

tahlil etib borishni anglatadi. “Yod kard” – Allohni doimiy eslab, qalbni boshqa narsalardan poklashni bildiradi. Bu jarayonda murid qalban kalimai tavhidni zikr qilib, diqqatini to’liq Haqqa qaratadi.

“Boz gash” zikrdan so’ng uning ma’nosini chuqur anglash va “Ilohi anta maqsudi va rizoka matlubi” (Ey Alloh, maqsadim Sensan, talabim Sening roziligingdir) mazmunini qalban his etishni anglatadi. “Nigohdosht” esa qalbni turli begona fikr va xotiralardan asrash, ichki dunyoni nazorat qilishni bildiradi. “Yod dosht” rukni ham xafiy zikr bilan bevosita bog’liq bo’lib, qalbdan Allohni doimiy his etish holatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, Naqshbandiya tariqatida insonning har bir qadami va hatto nafasi ham nazorat ostida bo’lishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu esa zikrni oddiy takrorlash darajasidan qalbiy uyg’oqlik darajasiga olib chiqishni ko’zlaydi. Alouddin Attor ta’kidlaganidek, zikr faqat jismoniy amal emas, balki qalbning uyg’oq holatidir. Shu bois, tasavvufdagi “botinga safar” insonni o’z nafsini yengish orqali haqiqiy o’zligini anglash va Haqni tanishga yetaklaydi.

Bahouddin Naqshband tomonidan tariqat amaliyotiga kiritilgan uchta asosiy “vuquf” – vuqufi zamon, vuqufi adadiy va vuqufi qalbiy – Naqshbandiya ta’limotining muhim tamoyillaridan hisoblanadi.

Vuqufi zamon insonning har bir lahzasini nazorat qilishi, vaqtini qanday o’tkazayotganini tahlil etib borishi hamda doimiy shukr va tavba holatida bo’lishini anglatadi. Bu tamoyil solikni beparvolikdan asrab, doimiy hushyorlikka chorlaydi.

Vuqufi adadiy zikr jarayonida muayyan sanoqqa rioya qilishni bildiradi. Bunda asosiy maqsad shunchaki raqamlarni to’ldirish emas, balki inson hayotida tartib-intizomni shakllantirishdir. Bu hol ibodatlardagi aniq vaqt va tartibga o’xshash tarzda inson irodasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vuqufi qalbiy esa qalbning doimiy ravishda Haq bilan bog’liq bo’lishi, Undan g’ofil qolmaslik holatini anglatadi. Bu bosqichda inson qalbi Allohdan boshqa narsalardan uzilib, faqat Unga yuzlanadi. Mazkur holat tasavvufda shuhud va vusul darajalariga yaqin maqom sifatida talqin etiladi hamda zikrning eng yuksak pog’onasi hisoblanadi. Ushbu uch tamoyil solikning doimiy sergakligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Naqshbandiya ta’limotida zikrning miqdoridan ko’ra uning sifati va qalbiy chuqurligiga ustuvor ahamiyat beriladi. Ayniqsa, ustoz bilan bo’lgan ma’naviy aloqa – robita – bu yo’lda muhim o’rin tutadi. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilgan bir hikoyatda ham ushbu g’oya o’z ifodasini topadi. Unda zikrni davom ettirmagan murid haqida so’z yuritilib, uning ustozini tushida ko’rishining o’zi ham yetarli ekani ta’kidlanadi. “Mundin ma’lum bo’lurki, har kimgaki oz robita-i azizlar bila bo’lsa, oxir mulhaq bo’lur”. Navoiy bu fikr orqali azizlar bilan bo’lgan ozgina, ammo chin ixlosga asoslangan bog’liqlik ham insonni oxir-oqibat Haq yo’liga

yetaklashini uqtiradi. Demak, Naqshbandiya ta'limotida tashqi amallar bilangina cheklanib qolmasdan, qalbiy poklik, samimiyat va ichki bog'liqlik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Naqshbandiya tariqati islomiy tasavvuf tarixida nafaqat diniy, balki yuksak ijtimoiy-axloqiy konsepsiya sifatida ham alohida o'rin tutadi. Uning insonni ma'naviy kamolotga yetaklash, axloqiy poklikni shakllantirish va jamiyatga foydali shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Xususan, "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyili insonning ichki dunyosi va amaliy faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Naqshbandiya ta'limoti va uning namoyandalari hayoti hamda ijodini o'rganishda Alisher Navoiy asarlari beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur masala adabiyotshunoslik bilan cheklanmay, dinshunoslik, tasavvuf, falsafa va boshqa fanlar kesimida ham chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan keng qamrovli mavzudir. Demak, Naqshbandiya va Navoiy o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish, uning mazmun- mohiyatini ochib berish hamda yosh avlodga yetkazish bugungi ilmiy jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu esa milliy va diniy-ma'naviy merosimizni asrash hamda uni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мархабо Давлатовна ПАРДАЕВА. АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ” АСАРИДА НАҚШБАНДИЯ ТАРИХИ ВА МОҲИЯТИ
2. Турар Усмон Тасаввуф тарихи. -Т.: «Истиқлол», 1999.-1806.110, 108
3. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. –Т.: «Movarounnahr» – «O‘zbekiston», 2009. – 448 б.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд 256,259
5. <http://https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/bahouddin-naqshband-1318-1389>
6. <http://https://www.muslim.uz/uz/e/post/14936-xoja-bahouddin-naqshband-hayoti-silsilasi-va-tariqat-qoidalari?page=7&per-page=1>